

"Ochiq muloqot" tashkil etildi



Joriy yilning 17 may kuni poytaxtdagi "WYNDHAM Tashkent" mehmonxonasida "O'zbekiston Respublikasining transport infratuzilmasi, islohotlar natijalari va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusida OAV bilan ochiq muloqot tashkil etildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Avtomobil yo'llari qo'mitasi, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, "Uzbekistan airways" AJ, "Uzbekistan airports" AJ hamda

Transport vazirligi huzuridagi yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi rahbarlari ishtirok etishdi.

Bo'lib o'tgan muloqotda mamlakatimiz transport tizimi va infratuzilmasi bilan bog'liq bo'lgan dolzarb masalalar atroflicha muhokama etildi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalistlar va blogerlar tomonidan berilgan savollarga soha mutasaddilari batafsil javob berildi.

Avtomobil yo'llari qo'mitasi

Matbuot xizmati

2021 yil 18 may